DOI

Abdusattorov S.J.
Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti 4-bosqich talabasi

G‘AFUR G‘ULOM ASARLARIDA MILLAT HUQUQI

Annotatsiya: *G‘.G‘ulom asarlarida inson huquqlariga hurmat, adolat, tenglik, erkinlik haqida tez-tez so‘z yuritiladi. Uning asarlarida xalq huquqlarini himoya qilish va zulmkor tuzumlarga qarshi kurashish uchun kurashning ahamiyati yoritilgan. G‘afur G‘ulom qalamiga mansub asarlarda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish tushunchalari kishilarning kundalik hayotiga singdirish yo‘li bilan ishlanadi. Binobarin, G‘ulom ijodi inson huquqlaridan xabardorlikni oshirish, ularni himoya qilishda muhim o‘rin tutadi.*
Kalit so’zlar: *Millat huquqi, adolat, jamiyat, Roqiyabibi, O’G‘ri, Vaqt, Chor Rossiyasi, Millatparvar yozuvchi.*

Abdusattorov S.J.
Tashkent State Law University Private Law School Level 4 student

THE LAW OF THE NATION IN THE WORKS OF GHAFUR GHULAM

Abstract: *G. Ghulam's works often mention respect for human rights, justice, equality, and freedom. His works highlight the importance of the struggle to protect people's rights and fight against oppressive regimes. In the works of Gafur Ghulam, the concepts of respect for human rights and freedoms are worked on by instilling them into the daily life of people. Therefore, Ghulam's work plays an important role in raising awareness of human rights and protecting them.*
Key words: *Nation's right, justice, society, Roqiyabibi, Thief, Time, Tsarist Russia, Nationalist writer.*

G‘afur G‘ulom bu nomni eshitgan har bir o’zbek kitobxoni ko’z oldida mashhur qissalari, she’rlari va hikoyalari bilan tanilgan buyuk O’zbek yozuvchisi gavdalanadi. Mening o’G‘rigina bolam, Shun bola, Hasan kayfiy, xalqimiz sevib mutolaa qiladigan asarlari sirasiga kiradi. Har bir asari, she’ri, hikoyasi orqali yozuvchi kitobxonlarga asarning tub zamirida o’sha davr voqealarini ifodalamoqchi bo’ladi.

G‘afur G‘ulom asarlarida har bir kitobxon o’zgacha zavq va kayfiyat bilan o’qiydi, so’z jumlalari shunday mohirlik bilan ishlatilganki o’qigan kishini o’z sehri bilan maftun etib qo’yadi.

https://wordlyknowledge.uz

Shoirning ma'lum va mashhur "Vaqt" she'rida ham milliy ruhni berish salohiyati yorqin namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. She'r hamma uchun birday bo'lgan hodisaning sof milliy ifodasi berilishi uchun muallif olamiga aynan G'afur G'ulom nazari bilan qaray olishi, u ko'rgan qiyinchiliklar va tazyiq va zulmlarni, undagi hodisalarni u kishiday idrok etishi lozim bo'lardi. Shundagina vaqt deb atalmish uch o'lchamli jahoniy xodisaning butun murakkabligini ifodalagan ushbu she'r zamirida o'zbekcha ruhni anglash mumkin bo'ladi.

Bunga misol sifatida aytishimiz mumkinki, "Mening O'g'rigina bolam" asari tag zamirida G'.G'ulom Abdulla Qodiriydan o'rgangan "sir tutish" hamda syujet harakatining muayyan bir tuguniga o'quvchi diqqatini jalb etib turish mahoratidan ustalik bilan foydalandi. Ayni vaqtda, bu badiiy usul adibga asar ziddiyati va qarama-qarshiliklarini qahramonlar to'qnashuvi va xarakterlar ruhiyatini ochishda muhim vosita rolini o'taydi. Asarda bir gala yetim bolalar Buvisi Roqiya bibi qaramog'ida qolgani, zamon juda tahlikali ekani, Kampirning o'ylaridan endi bu bolalarni qanday boqishni o'ylab o'tirgani, shu payti to'satdan uyiga o'g'ri tushganini bilgani, lekin pinagini ham buzmagani chunki Uyida O'g'irlaydigan narsaning o'zi yo'qligi barchasini "Hukumat" o'g'irlab bo'lganiga guvoh bo'lamiz.

Hikoyada Roqiya bibining o`g`riga qarata "– O`g`rigina bolam, biror boshqa kasbni qilsang bo`lmaydimi?" deya aytgan gaplari, albatta, kitobxonni harom yo`ldan tiyilishga undaydi. Aytish mumkinki, o`g`irlik qilish nafaqat axloq tamoyillariga, balki huquqqa ham xilof. Qonunchiligimizga ko`ra, o`g`irlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Huquq va axloqning asosiy o`ziga xos belgisi shuki, huquq normasi qoida sifatida o`rnatiladi va huquq normasini buzish qonunda belgilab qo`yilgan muayyan javobgarlikni keltirib chiqaradi, axloq normalari esa insonlar ongida odat bo`lib shakllanadi va u jamoatchilik tomonidan nazorat qilinadi . O`zbek xalqi orasida o`zgalar moliga ko`z olaytirmaslik qadriyat sifatida shakllanib ulgurgan. Xo`sh, insonlar ongida axloq normasi sifatida shakllangan tamoyilning buzilishiga nima sabab bo`ldi? O`g`rining kampirning savoliga " −Nima kasb qilay? Hamma kasblarning bozori kasod bo`ldi. Ota kasbim kavushdo`zlikni qilay desam,
kavushning masallig`i bitib chiqqan kavushdan uch baravar qimmat. Hammollik qilay desam, hozir avvalgidek qoplab g`alla, sabzi-sholg`om oladigan badavlatlarning tuxumi qurigan. Bitta man emas buvi mahalladagi hamma kosiblarning, pichoqchilar, ko`nchilar, bo`zchilar, maktab domlalari, mullavachchalarning ham ahvoli shunaqa." deya bergan javobidan urushning qancha-qancha insonlarga azob bergani, insonlar hayotining qanchalik og`ir bo`lganligi anglashiladi.

Ammo shunday odamlar bo`lganki, ularga zamon olib
kelgan qiyinchiliklar ta'sir qilmagan. Hikoyada ham ana shunday insonlarning nomlari sanaladi. Kampirning o`g`riga "Nega badavlatroq odamlarning uyiga o`g`irlikka tushmaysan?" deya bergan savoliga "Ularning paxsasi sakkiz qavat,

https://wordlyknowledge.uz

eshiklari temirdan, har bittasining uyida ikkita, uchta eshakday-eshakday itlari bor. Odilxo`jaboyning uyida miltiq ushlagan gorodovoy turadi.” deb bergan javobidan ana shunday og`ir davrda ham farovon yashagan insonlar bo`lganligi ko`zga tashlanadi. Odamlar qiyinchilik bilan kun ko`rayotgan, yetimlar “Amaki, non bering” deya och-nochor nola qilayotgan bir vaqtda hech qanday qiyinchiliklarni ko`rmay yashayotgan insonlar qanday qilib bunday to`kin hayotga erishishdi ekan? Bunga yagona javob bor. Bunday insonlar o`zganing haqqidan qo`rqmaydigan, haromdan tiyilmaydigan, boshqalarning hisobidan yashaydigan insonlardir. Ular bunday hayotga harom yo`l orqali erishgan. Harom yo`l orqali pul topish, shubhasiz, huquq va axloqqa zid. O`g`rining Rahmonxo`ja ellikboshiga sirlarini aytmasligi uchun xo`roz olib borib berganligi, 83 so`m pul jamg`arib pora berganligi, ellikboshining ishni bosdi-bosdi qilganligi o`sha davrdagi axloqiy va huquqiy tamoyillarning buzilishiga misol bo`la oladi. Asarda Roqiya buvining o`g`riga kecha tog`ang berib ketgan ikkita zog`ora bor, pastga tush choy ichamiz degan gaplariga javoban o`g`rining kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz, uyalaman deb aytishi, kampirning qutlug` uydan quruq ketma, yarim pudlik qozon bor, shuni olib ket, sotib bir kuningga yaratarsan deya aytganlariga “– Yo`q, bu qozon yetimlarning o`ziga buyursin. To`ylarida o`ynab-kulib xizmat qilaylik” deb javob qaytarishi o`g`rining oz bo`lsa-da, vijdonli ekanligini ko`rsatadi. Shu o`rinda savol tug`iladi: Aslida o`g`ri kim? Nochor xalqning rizqini yeyayotgan, o`zganing haqqidan qo`rqmayotgan Rahmonxo`jaga o`xshagan mansabdorlar emasmi, haqiqiy o`g`rilar? Jamiyatda nochorlarning borligi, ularning haqqini yeyayotganlarning borligidan dalolat beradi.

Aytish mumkinki, Rahmonxo`jaga o`xshash odamlarni xalq o`g`ri deb atamasa-da, ammo ana o`shalar haqiqiy o`g`rilardir. Ularning ko`ra-bila turib, ter to`kmasdan non topishga qiynalayotgan odamlarni talashi, ularning moliga ko`z olaytirishi, har narsadan “foyda” olib qolishga urinishi haqiqiy o`g`rilik.

Asar davomida O‘g‘ri va Kampirning suhbatidan o‘sha davr insonlarining holati va qashshoqligi beixtiyor har bir o‘quvchining xayolida gavdalanadi. Yozuvchi o’sha davrda birinchi jahon urishi Chor Rossiyasining butun viloyatlari va mustamlakalariga o’z ta’sirini o’tkazishi, xususan mustamlaka bo’lgan Turkiston aholisining huquqlari poymol etilishi barcha erkaklarning harbiy safarbarlikka yoki Rossiyaning sovuq o’lkalari bo’ylab mardikorllika jalb etilishi. Qanchadan qancha oilalarni boquvchisiz qolishi bolalarning yetim qolishi G‘afur G‘ulomning birgina shu “Mening o’G‘rigina bolam” asarida emas barcha she’rlari, qissalari, hikoya va romanlarida bir qaraganda oddiy, hazil-mutoyiba jo’n ko’ringan asarlariga orasiga, tub mohiyatiga chuqur haqiqatni ifodalamoqchi bo’lganini bilish qiyin emas. Misol uchun, Mening o’G‘rigina bolamdagi Kampir va O’G‘ri suhbati, Shum boladigi Qoravoy va Eshon bobo suhbati va asar davomidagi Qoravoyning sarguzashtlaridan insonlarning qanchalik qiyinchilikni boshdan kechirgani va azob-uqubatlarga mubtalo bo’laganini bilish uchun asarlari ustida chuqur mulohaza qilish kerak deb o’ylayman.

https://wordlyknowledge.uz

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, Yozuvchining asarlarida Millat huquqi haqida batafsil to’xtalib o’tadigan bo’lsak, gapiradigan gaplar ham aytiladigan fikrlar ham talaygina, lekin shuni alohida takidlab o’tishimiz kerakki, G‘afur G‘ulom Millat yozuvchisi hisoblanadi. Millat dardini, oG‘riqlarini o’z asarlarida ifodalagan jonkuyar shaxs, elim deb yurtim deb, shu xalq farovonligini o’ylagan o’zi Sovet hukumatining tazyiq va sitamlariga qaramay yozishdan ijod qilishdan to’xtamagan haqiqiy yozuvchi hisoblanadi. G‘afur G‘ulom har bir she’r, qissa va hikoyalarida adabiy bo’yoqni shunday mohirlik bilan tasvirlashga harakat qilishidan tashqari Millatparvar shoir va yozuvchi ekanligi inson huquqlari va adolat masalalari yaqqol ufurib turibdi.

G‘afur G‘ulom o‘zbek adabiyoti tarixidagi muhim yozuvchilardan biri bo‘lib qoldi, uning asarlarida ko‘pincha inson huquq va erkinliklari mavzulari yoritilgan. G‘afur G‘ulom sho‘rolar davrida yozgan asarlarida xalq turmush sharoitini yaxshilash, adolatli jamiyat barpo etish uchun kurashayotgan insonlar haqida hikoya qiladi. G‘ulom G‘ulom zulmkor tuzumlar xalq haq-huquqlarini poymol qilishini ko‘rsatuvchi asarlar ham yozgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Naim Karimov, G‘afur G‘ulom, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent:. 2003-yil.
2. G‘afur G‘ulom, Tanlangan asarlar, Nazm va nasr
3. Nasiba Bozorova, G‘afur G‘ulomning badiiy mahorati, Toshkent davlat yuridik universiteti
4. G’afur G’ulom, “Shum Bola”, Nurafshon nashriyoti, 2019-yil, Toshkent.
5. G’afur G’ulom, “Mening O’g’rgina bolam” hikoyalar, 2020-yil, Sharq-ziyokori nashriyoti.

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz